



12- laboratoriya ishi

Misning ikki valentli tuzlaridan mis (II)-gidroksidi olish
va u bilan tajribalar o'tkazish

1. Probirkaga 2 ml mis (II)-sulfat eritmasidan quying va unga sekin-astalik bilan natriy gidroksid eritmasidan 1—2 ml quying.
2. Hosil bo'lgan hodisani kuzating. Cho'kmani filtrlang. Yuving. Sodir bo'lgan kimyoviy reaksiya tenglamasini yozing.
3. Cho'kma mis (II)-gidroksid ekanligini isbotlovchi tajribalarni bajaring.
 - a) xlorid kislota ta'sir ettiring.
 - b) cho'kmaning bir qismini chinni tigelga solib, sekin astalik bilan qizdiring.

Mustaqil xulosa uchun topshiriq

1. Yuqoridagi tajribalarda sodir bo'lgan hodisalarni izohlang.
2. 20 % li 4 g mis (II)-sulfat eritmasi bilan qoldiqsiz reaksiyaga kirishish uchun qancha hajm 20 % li ($\rho=1,22 \text{ g/ml}$) natriy gidroksid eritmasi qo'shish kerak?
3. Mis (II)-gidroksidni qanday usullar bilan olish mumkin?